



IJTIMOIY PEDAGOGNING OILAVIY TARBIYA JARAYONIDAGI MA'NAVIY-MA'RIFIY FAOLIYATI

Marjona Nabiyeva

Xalqaro innovatsion universitet talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ijtimoiy pedagogning oilaviy muhitda bolani tarbiyalashdagi o'rni va roli tahlil qilinadi. Tadqiqotda oilaning bola shaxsini shakllantirishdagi ahamiyati, ijtimoiy pedagogning ota-onalar bilan hamkorligi, pedagogik va psixologik yordami hamda bolalarda ijobiy fazilatlarni rivojlantirishdagi faoliyati yoritilgan. Shuningdek, interfaol metodlar, milliy qadriyatlar va innovatsion yondashuvlar asosida bolalarda ma'naviy-axloqiy tarbiyani shakllantirish masalalari ko'rib chiqilgan. Tadqiqot natijalari oilaviy tarbiya jarayonida ijtimoiy pedagogning faoliyati sog'lom ma'naviy muhit yaratishda muhim omil ekanligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: ijtimoiy pedagog, oilaviy muhit, bola tarbiyasi, pedagogik yondashuv, psixologik yordam, ma'naviy tarbiya, interfaol metodlar, ota-ona hamkorligi, yosh xususiyatlari, barkamol avlod.

Аннотация. В данной статье анализируется роль и значение социального педагога в воспитании ребенка в семейной среде. В исследовании подчеркивается значимость семьи в формировании личности ребенка, сотрудничество между социальными педагогами и родителями, педагогическая и психологическая поддержка, а также развитие позитивных качеств у детей. Кроме того, в работе рассматривается формирование нравственно-этического воспитания посредством интерактивных методов, национальных ценностей и инновационных подходов. Результаты исследования показывают, что деятельность социального педагога в семейном воспитании является важным фактором создания здоровой духовно-социальной среды.

Ключевые слова: социальный педагог, семейная среда, воспитание ребенка, педагогический подход, психологическая поддержка, нравственное воспитание, интерактивные методы, сотрудничество родителей, возрастные характеристики, всесторонне развитое поколение.

Annotation. This article analyzes the role and importance of the social pedagogue in raising a child within the family environment. The study highlights the significance of the family in shaping a child's personality, the cooperation between social pedagogues and parents, pedagogical and psychological support, and the development of positive qualities in children. In addition, the paper discusses the formation of moral and ethical education through interactive methods, national values, and innovative approaches. The research findings show that the activity of the social pedagogue in family upbringing is an important factor in creating a healthy spiritual and social environment.

Key words: social pedagogue, family environment, child upbringing, pedagogical approach, psychological support, moral education, interactive methods, parent cooperation, age characteristics, well-rounded generation.

KIRISH

Ijtimoiy pedagogning oilaviy muhitda bolani tarbiyalashdagi o'rni va roli bugungi kunda ta'lim va tarbiya tizimining eng dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Chunki bolaning shaxs sifatida shakllanishida oila asosiy muhit bo'lib xizmat qiladi. Bola ilk tarbiyani oilada oladi, uning dunyoqarashi, xulq-atvori, odoq-axloqi, jamiyatga munosabati aynan oilaviy muhit ta'sirida shakllanadi. Shu sababli ijtimoiy pedagogning vazifasi faqat maktab yoki ta'lim muassasasi bilan chegaralanib qolmay, balki oila bilan



hamkorlik qilish, ota-onalarga pedagogik tavsiyalar berish, bolani sog'lom ijtimoiy muhitda voyaga yetkazishga ko'maklashishdan iboratdir.

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalari rivojlangan davrda bolalar tarbiyasiga turli tashqi omillar ta'sir ko'rsatmoqda. Internet, ommaviy axborot vositalari, turli ijtimoiy tarmoqlar orqali bolalar ongiga turlicha g'oyalar singib borayotgani sir emas. Bunday vaziyatda oilaning tarbiyaviy imkoniyatlarini mustahkamlash va ota-onalarni pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlashda ijtimoiy pedagogning roli yanada muhim ahamiyat kasb etadi. Ijtimoiy pedagog oilada sog'lom ma'naviy muhit yaratish, ota-ona va bola o'rtasidagi munosabatlarni yaxshilash hamda bolalarda ijobiy fazilatlarini shakllantirishga yordam beradi.

Bola tarbiyasida yosh xususiyatlarini hisobga olish muhim hisoblanadi. Ayniqsa, boshlang'ich yoshdagi bolalar ko'proq obrazli fikrlashga moyil bo'ladi. Ular murakkab tushunchalardan ko'ra sodda, qiziqarli va hayotiy misollarni tezroq qabul qiladi. Shu sababli ijtimoiy pedagog oilada tarbiyaviy jarayonni tashkil etishda turli interfaol metodlardan foydalanishni tavsiya etadi. Masalan, ertak, hikoya, rolli o'yinlar, sahna ko'rinishlari va ko'rgazmali vositalar orqali bolaga milliy qadriyatlar, odob-axloq, vatanparvarlik va insoniylik fazilatlarini singdirish mumkin. Bu usullar bolalarda nafaqat bilim, balki mustaqil fikrlash, jamoada ishlash va muloqot ko'nikmalarini ham rivojlantiradi.

Asosiy jihatlar	Tavsif	Ijtimoiy pedagogning roli	Amaliy usullar va misollar	Kutilayotgan natijalar
Oilaning tarbiyaviy ahamiyati	Bola ilk tarbiyani oilada oladi. Dunyoqarashi, xulq-atvori, odob-axloq va jamiyatga munosabati oilaviy muhit ta'sirida shakllanadi.	Ota-onalarga tarbiya bo'yicha pedagogik tavsiyalar berish, oila va maktab o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yish.	<ul style="list-style-type: none"> Ota-onalar yig'ilishlari Seminar va treninglar Individual maslahatlar 	Ota-onalarning pedagogik madaniyati oshadi, bolada ijobiy fazilatlar shakllanadi.
Tashqi omillarning ta'siri	Internet, TV, ijtimoiy tarmoqlar bolalar ongiga turli g'oyalar singib bormoqda. Bu esa tarbiyaga salbiy ta'sir qilishi mumkin.	Oilani qo'llab-quvvatlash, bolani salbiy ta'sirlardan himoya qilish yo'llarini ko'rsatish.	<ul style="list-style-type: none"> Axborot xavfsizligi bo'yicha tushuntirishlar Oilaviy qoidalar ishlab chiqish Foydali vaqtni tashkil etish 	Bolalar salbiy ta'sirlardan himoyalanaadi, sog'lom ma'naviy muhit yaratiladi.
Yosh xususiyatlarini hisobga olish	Boshlang'ich yoshdagi bolalar ko'proq obrazli fikrlashga moyil, sodda va qiziqarli misollarni tez qabul qiladi.	Yoshga mos tarbiya metodlarini tavsiya qilish va ularni oilada qo'llashga yo'l-yo'riq berish.	<ul style="list-style-type: none"> Ertak va hikoyalar Rolli o'yinlar Sahna ko'rinishlari Ko'rgazmali vositalar 	Bolalarda qiziqish, bilim, ijodkorlik va ijobiy fazilatlar rivojlanadi.
Bolaning psixologik holatini tushunish	Har bir bola individual bo'ladi. E'tibor yetishmasligi o'ziga ishonchsizlik, qo'rquv yoki moslashuv muammolariga olib kelishi mumkin.	Ota-onaga psixologik va pedagogik yordam berish, bola ruhiyatini tushunish va to'g'ri yondashuvni o'rgatish.	<ul style="list-style-type: none"> Psixologik maslahatlar Suhbatlar va kuzatuvlar Muammoli oilalarga yordam 	Bola o'zini ishonchli his qiladi, ruhiy muammolar oldi olinadi, oilada sog'lom muhit shakllanadi.
Hamkorlik va uzluksizlik	Maktab, oila va jamiyat hamkorligi bolani har jihatdan qo'llab-quvvatlash imkonini beradi.	Oila, maktab va jamiyat orasida ko'prik vazifasini bajarish, hamkorlikni ta'minlash.	<ul style="list-style-type: none"> Maktab va oila hamkorligi Jamiyat tashkilotlari bilan aloqalar Loyihalar va tadbirlar 	Bola har tomonlama qo'llab-quvvatlanadi, barkamol va faol shaxs bo'lib voyaga yetadi.



Ijtimoiy pedagog oiladagi tarbiya jarayonida ota-onalarga bolaning psixologik holatini tushunishda ham yordam beradi. Chunki har bir bola individual shaxs bo'lib, uning qiziqishi, xarakteri, dunyoqarashi turlicha bo'ladi. Ayrim bolalar faol va kirishimli bo'lsa, boshqalari tortinchoq yoki kamgap bo'lishi mumkin. Ba'zi hollarda ota-onalar bolaning ichki kechinmalarini to'liq tushunmaydi yoki unga yetarli e'tibor bermaydi. Natijada bolada o'ziga ishonchsizlik, qo'rquv yoki ijtimoiy moslashuv muammolari paydo bo'lishi mumkin. Ijtimoiy pedagog esa ota-onaga pedagogik va psixologik tavsiyalar berib, oiladagi sog'lom ruhiy muhitni shakllantirishga ko'maklashadi.

Bolani tarbiyalashda milliy qadriyatlar va ajdodlar merosidan foydalanish ham katta ahamiyatga ega. Ijtimoiy pedagog ota-onalarga buyuk allomalarimiz hayoti va ijodini bolalarga yoshiga mos tarzda tushuntirishni tavsiya qiladi. Masalan, Alisher Navoiy hayotini ertak uslubida hikoya qilish yoki Amir Temur haqidagi qahramonlik voqealarini sodda va qiziqarli shaklda aytib berish bolalarda vatanparvarlik, jasorat va bilimga intilish hissini uyg'otadi. Bunday yondashuv bolalarda tarixiy shaxslarga nisbatan hurmat va qiziqish uyg'otibgina qolmay, ularda milliy o'zlikni anglash tuyg'usini ham shakllantiradi.

IJTIMOIY PEDAGOGNING OILAVIY MUHITDA BOLANI TARBIYALASHDAGI O'RNI VA ROLI

OILA BILAN HAMKORLIK
Ota-onalarga pedagogik yordam va maslahat berish

MA'NAVIY TARBIYA
Milliy qadriyatlar, ajdodlar merosi orqali tarbiya

INTERFAOL METODLAR
Ertak, hikoya, o'yin, sahna ko'rinishlari, ko'rgazmali vositalar

OILA - BOLA TARBIYASINING ASOSI

- ✓ Mehr va e'tibor
- ✓ Hurmat va ishonch
- ✓ Yaxshi odat
- ✓ Ma'naviy muhit

PSIXOLOGIK YORDAM
Bolalarning ruhiy holatini tushunish va qo'llab-quvvatlash

HUQUQ VA HIMOYA
Bolalarning huquqlarini himoya qilish va ijtimoiy muammolarini hal qilish

JAMOAVIY ISH
Bolalarda muloqot, bir-birini hurmat qilish va hamkorlikni rivojlantirish

MAQSAD:

- Vatanparvar, ma'naviyatli avlodni tarbiyalash
- Bilimli, ijodkor va mustaqil shaxsni shakllantirish
- Odob-axloqli, mehribon va insonparvar bo'lish
- Kelajakda jamiyatga foydali, barkamol inson bo'lib yetishish

IJTIMOIY PEDAGOG - OILA VA MAKTAB O'RTASIDAGI MUHIM KO'PRIK!

Oilada tarbiyaviy jarayonni samarali tashkil etishda o'yin metodlari ham muhim vosita hisoblanadi. Masalan, bolalarga buyuk allomalar rasmlarini bo'laklarga ajratilgan holda berish va ularni birlashtirish topshirig'ini tashkil qilish mumkin. Bu jarayonda



bolalar jamoaviy ishlashni, bir-birini tinglashni, fikr almashishni o'rganadi. Shu bilan birga, rasmda tasvirlangan shaxs haqida ma'lumotlarga ega bo'ladi. Bunday metodlar bolalarda ijodkorlik, mustaqil fikrlash va muloqot ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ijtimoiy pedagog aynan shunday innovatsion metodlarni oilaviy tarbiyada qo'llash orqali bolaning faolligini oshirish mumkinligini ta'kidlaydi. Ijtimoiy pedagogning oiladagi muhim vazifalaridan yana biri bu bolaning bo'sh vaqtini mazmunli tashkil etishga yordam berishdir. Bugungi kunda ko'plab bolalar vaqtining asosiy qismini telefon yoki kompyuter qarshisida o'tkazmoqda. Bu esa ularning ijtimoiy faolligiga va sog'lom rivojlanishiga salbiy ta'sir qilishi mumkin. Shu sababli ijtimoiy pedagog ota-onalarga bolalarni kitob o'qishga, sportga, ijodiy mashg'ulotlarga va foydali to'garaklarga jalb qilish bo'yicha tavsiyalar beradi. Ayniqsa, oilaviy suhbatlar, birgalikdagi sayrlar va kitobxonlik kechalari bolalar ruhiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bolaning maktabdagi muvaffaqiyati ham ko'p jihatdan oiladagi muhitga bog'liq. Ota-onaning bolaning ta'limiga qiziqishi, unga mehr va e'tibor berishi bolaning o'ziga bo'lgan ishonchini oshiradi. Ijtimoiy pedagog maktab va oila o'rtasidagi hamkorlikni mustahkamlash orqali bolalarning ta'lim-tarbiyasini yaxshilashga xizmat qiladi. Ota-onalar yig'ilishlari, individual suhbatlar va tarbiyaviy seminarlar orqali oilalarga pedagogik yordam ko'rsatadi.

Bugungi kunda ayrim oilalarda ijtimoiy muammolar, moddiy qiyinchiliklar yoki oilaviy nizolar sabab bolalar tarbiyasida muammolar yuzaga kelmoqda. Bunday vaziyatlarda ijtimoiy pedagog bolaning manfaatlarini himoya qiluvchi muhim mutaxassis sifatida faoliyat yuritadi. U bolaning huquqlarini himoya qiladi, zarur hollarda psixolog, shifokor yoki boshqa mutaxassislar bilan hamkorlikda ish olib boradi. Ayniqsa, notinch oilalarda yashovchi bolalarga ijtimoiy-pedagogik yordam ko'rsatish muhim hisoblanadi.

Ijtimoiy pedagogning faoliyati natijasida oilada sog'lom ma'naviy muhit shakllanadi, ota-onalarning pedagogik madaniyati oshadi va bolalarda ijobiy insoniy fazilatlar rivojlanadi. Bola oilada mehr-muhabbat, hurmat va e'tibor ko'rsa, kelajakda jamiyatga foydali, barkamol inson bo'lib voyaga yetadi. Shu bois ijtimoiy pedagog oila, maktab va jamiyat o'rtasidagi muhim ko'prik vazifasini bajaradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, ijtimoiy pedagogning oilaviy muhitda bolani tarbiyalashdagi o'рни nihoyatda muhim hisoblanadi. Chunki bola shaxsining shakllanishida oila asosiy tarbiya maskani bo'lib, undagi ma'naviy-ruhiy muhit bolaning dunyoqarashi, xulq-atvori va kelajakdagi ijtimoiy faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois ijtimoiy pedagog oila, maktab va jamiyat o'rtasida muhim ko'prik vazifasini bajaradi. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, ijtimoiy pedagog ota-onalarga



pedagogik va psixologik tavsiyalar berish, bolalarning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish hamda interfaol metodlar orqali tarbiyaviy jarayonni samarali tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ertak, hikoya, rolli o'yinlar, sahna ko'rinishlari va ko'rgazmali vositalar bolalarda mustaqil fikrlash, jamoaviy ishlash va milliy qadriyatlarga hurmat tuyg'ularini rivojlantiradi. Shuningdek, zamonaviy axborot texnologiyalari ta'siri kuchayib borayotgan bugungi davrda ijtimoiy pedagogning oilalar bilan hamkorligi yanada dolzarb ahamiyatga ega. U bolalarni salbiy axborotlardan himoya qilish, sog'lom ma'naviy muhit yaratish va barkamol avlodni tarbiyalashda muhim pedagogik yordam ko'rsatadi. Demak, ijtimoiy pedagogning oilaviy tarbiya tizimidagi faoliyati bolalarning har tomonlama rivojlangan, ma'naviy yetuk, vatanparvar va jamiyatga foydali inson bo'lib voyaga yetishida muhim omillardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Макаренкова, И.В. Социальная дезадаптация детей и подростков (психолого-педагогические основы коррекционно-профилактической работы) / И.В. Макаренкова, А.В. Мисько. - М.: АРГУС, 2004.
2. Чукреева, В. В. Влияние семьи на развитие личности ребенка, его благополучие / В. В. Чукреева. — Текст: непосредственный // Проблемы и перспективы развития образования: материалы I Междунар. науч. конф. (г. Пермь, апрель 2011 г.). — Т. 2. — Пермь: Меркурий, 2011.
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/zamonaviy-sharoitda-oilada-bolalarni-ijtimoiy-hayotga-tayyorlash>
4. <http://www.wosjournals.com/index.php/medical/article/view/2177>
5. <https://esiconf.org/index.php/MRIATS/article/view/7400>
6. <https://worldlyjournals.com/index.php/ituy/article/view/14971>